

## “O‘G‘UZNOMA” DOSTONIDAGI QADIMIY URF-ODATLAR

Meliboyeva Marhabo Sharipovna,

Qo‘qon davlat universiteti

Fakultetlararo tillar kafedrasida katta o‘qituvchisi,

G-mail:marhabomeliboyeva@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada “O‘g‘uznoma” dostonidagi qadimgi e‘tiqodiy qarashlar hamda ularning tarixiylik tamoyillari bilan o‘zaro uyg‘unligi ilmiy asosda tahlil qilingan. Asarda turkiy xalqlarning kelib chiqishiga oid afsonaviy qarashlar, urug‘ va qabilalar nomlarining shakllanish jarayoni, shuningdek, ularning tarixiy manbalarda aks etish xususiyatlari o‘rganilgan. Shu bilan birga, “O‘g‘uznoma” dostoni hamda Sharq tarixiy asarlari o‘rtasidagi mushtarak va farqli jihatlar solishtirma-qiyosiy usul asosida yoritilgan. Tadqiqot natijasida afsonaviy qarashlar orqali turkiy xalqlarning dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy tafakkuri hamda tarixiy xotirasi namoyon bo‘lishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘g‘uznoma, afsonaviy qarashlar, tarixiylik tamoyili, etnologik miflar, turkiy xalqlar, urug‘ va qabilalar, Sharq tarixiy manbalari, solishtirma-qiyosiy tahlil.

**Аннотация.** В данной статье научно анализируются древние верования, отражённые в эпосе «Огузнама», а также их взаимосвязь с принципами историчности. В произведении исследуются мифологические представления о происхождении тюркских народов, процесс формирования названий родов и племён, а также особенности их отражения в исторических источниках. Кроме того, на основе сравнительно-сопоставительного метода освещаются общие и отличительные черты между эпосом «Огузнама» и восточными историческими трудами. В результате исследования научно обосновано, что через мифологические представления в произведении раскрываются мировоззрение, социально-политическое мышление и историческая память тюркских народов.

**Ключевые слова:** «Огузнама», мифологические представления, принцип историчности, этнологические мифы, тюркские народы, роды и племена, восточные исторические источники, сравнительно-сопоставительный анализ.

**Abstract.** This article provides a scholarly analysis of the mythological views in the epic “Oguznama” and their harmonious correlation with the principles of historicity. The study examines mythological concepts related to the origin of Turkic peoples, the formation of clan and tribal names, and the ways these are reflected in historical sources. In addition, the common and distinctive features of the epic “Oguznama” and Eastern historical works are highlighted through a comparative analysis. The research substantiates that mythological perspectives reveal the worldview, socio-political thinking, and historical memory of Turkic peoples.

**Keywords:** “Oguznama,” mythological views, principle of historicity, ethnological myths, Turkic peoples, clans and tribes, Eastern historical sources, comparative analysis.

**Kirish.** “O‘g‘uznoma” dostonidagi tarixiylik tamoyillari, umuman, har qanday folklor namunasidagi tarixiylik asarni tahlil qilishda, baholashda alohida ahamiyat kasb etadi. Asosini mifologik motivlar va etnologik miflar tashkil qilgan “O‘g‘uznoma” dostonidagi tarixiylikni etnologik rivoyatlar, ya’ni xalqlarning kelib chiqishi bilan bog‘liq rivoyatlar belgilaydi. Ulardagi tarixiylik muayyan nom ostida yashovchi xalq, urug‘, qavm, jamoa va qabilalarning real mavjudligida, tarixiy shaxslar nomlarining saqlanib qolganligida ko‘zga tashlanadi.[1.32]

“O‘g‘uznoma” dostonida qang‘, qipchoq, saqlab, qarluq, qalach kabi turkiy urug‘larning kelib chiqishi haqidagi etnologik rivoyatlar mavjud. Mazkur rivoyatlarda

sanab o‘tilgan urug‘larning kelib chiqishi O‘g‘uzxon nomi bilan bog‘lanadi. Agar yuqoridagi tamoyilga asoslanadigan bo‘lsak, qipchoq, O‘g‘uz kabi nomlarning geografik joy nomi, lahjalarning nomi sifatida saqlanib kelayotganligi “O‘g‘uznoma” dostonidagi etnologik miqlarda mavjud bo‘lgan tarixiylikni ko‘rsatadi. Bundan tashqari, “O‘g‘uznoma” dostonidagi tarixiylik tamoyillari asosida Sharq adabiyotidagi tarixiy asarlarda O‘g‘uzxon va turkiy xalqlarning kelib chiqishi bilan bog‘liq rivoyatlar qay darajada saqlanganligini yoritish mumkin.

**Adabiyotlar tahlili.** “O‘g‘uznoma” dostoni va uning tarixiy-mifologik asoslari bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. N.Ya. Bichurin turkiy xalqlar haqidagi qadimiy tarixiy ma‘lumotlarni jamlab, ularning etnik kelib chiqishini yoritgan.[1] B. Putilov folklordagi motivlarning syujet hosil qilishdagi rolini asoslab, “O‘g‘uznoma”dagi afsonaviy voqealar tizimini tushuntiradi.[5] A.N. Veselovskiy esa tarixiy poetika nuqtayi nazaridan mif va tarix uyg‘unligini ilmiy asoslaydi.[6]

Turk mifologiyasi bo‘yicha G‘al Bahouddin tadqiqotlarida O‘g‘uzxon bilan bog‘liq afsonalarning mifologik ildizlari yoritilgan.[2] E. Jabbor esa xalq dostonlaridagi motivlar tizimi orqali “O‘g‘uznoma” bilan folklor o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi.[3] Mumtoz adabiyot namunalariga oid ishlarda esa asarning adabiy an‘anadagi o‘rni va ta‘siri tahlil qilingan.[4]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda “O‘g‘uznoma” dostonidagi qadimiy urf-odatlar va etnologik miqlarni tahlil qilish uchun kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Asosiy metodlar sifatida tavsifiy, qiyosiy-tarixiy va struktur-semantik tahlil usullari tanlandi.

Tadqiqot materiali sifatida “O‘g‘uznoma” dostoni hamda Rashididdin Hamadoniy, Mirzo Ulug‘bek, Hofiz Tanish Buxoriy va Abulg‘ozi Bahodirxon asarlaridagi O‘g‘uzxon haqidagi ma‘lumotlar o‘rganildi. Matnlar tarkibida uchraydigan urug‘ va qabila nomlari, afsonaviy voqealar hamda urf-odatlarga oid birliklar tahlil qilindi.

Qiyosiy metod orqali doston va tarixiy manbalardagi umumiy hamda farqli jihatlar aniqlandi. Struktur-semantik tahlil esa etnologik miqlarning mazmuniy qatlamini ochib berishga xizmat qildi.

**Tahlillar va natijalar.** O‘g‘uzxon – Sharq adabiyotidagi tarixiy asarlarda ko‘p uchraydigan, ko‘p tilga olinadigan shaxs. Jumladan, Rashididdin Hamadoniyning “Jome‘ ut-tavorix”, Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” asarlarida O‘g‘uz hoqon bilan bog‘liq afsonalar o‘z aksini topgan. Mazkur asarlardagi O‘g‘uz hoqon afsonasi va “O‘g‘uznoma” dostoni o‘rtasida bir qancha umumiy va farqli jihatlar mavjud. Yuqorida keltirilgan asarlarning barchasida O‘g‘uz hoqon musulmon sifatida talqin qilinadi. Rashididdin Hamadoniy ham, Abulg‘ozi Bahodirxon, Mirzo Ulug‘beklar ham turkiy qavmlarni O‘g‘uzxondan tarqalganini aytib, O‘g‘uz hoqon shajarasini Nuh payg‘ambarga borib taqalishini ko‘rsatadilar. “O‘g‘uznoma” dostoni bilan sanab o‘tilgan tarixiy

asarlardagi O'g'uz afsonasi o'rtasidagi umumiylik va farqlar O'g'uzxonning turkiylarga nom berishi bilan bog'liq voqealarda ham ko'zga tashlanadi. "Jome' ut-tavorix"da ham, "To'rt ulus tarixi", "Abdullanoma", "Shajarai turk"da ham qipchoq, qarluq, qalach (xalaj), qang' kabi xalqlarning kelib chiqishi haqida rivoyatlar mavjud. Faqat bu rivoyatlar keltirilgan tarixiy asarlarda turlicha bo'lib, syujetida o'zgarishlar yuz bergan. Birgina qang' urug'ining kelib chiqishi haqidagi rivoyatlarni solishtirib ko'ramiz. Mazkur rivoyat "O'g'uznoma" dostonida quyidagicha berilgan: "Jangdan so'ng O'g'uz hoqonning qo'shiniga, navkarlari-yu xalqiga shunday katta o'lja keldi-ki, ularni olib ketishga ot, xachir, ho'kiz kamlik qildi. O'g'uz hoqonning qo'shinida chaqqon, gavdali bir yaxshi odam bor edi. Uning oti Barkamlik Jusun Bilik edi. Bu chaqqon odam bir qang'a topdi. Qang'a ustiga mol-mulklarni yukladi, qang'a boshiga tirik boyliklarni yukladi, jo'nab ketdilar. Navkarlarning, xalqning hammasi buni ko'rdilar, shoshdilar... O'g'uz hoqon qang'alarni ko'rdi, kuldi. Yana aytdiki, qang'a bilan boylikni ezgulik tortib borsin.

Qang'alik senga ot bo'lganligini "qang'a" so'zi bildirsin, deb o'z yo'liga ketdi".[2.154] Aynan shu etnologik mif Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi"da shunday berilgan: "Ammo, qang'li aqlilik, farosatlilik ma'nosidir. Chunonchi, bir jangda O'g'uzxon qo'liga juda ko'p boylik o'lja tushgan edi. G'animdan hushyor o'lja olib, uning qulfini ocha olmagan edi. Lashkardoshlarning to'g'ri fikr yurituvchi bir to'dasi urinib ko'rishdi. Bartartib qildilar ul o'ljani, osonlikcha olib tashib oldilar. O'z aql-u farosati bilan dunyo mushkullarini yecha olganliklari sababli ularga qang'li deb nom qo'ydi". Qang' urug'ining paydo bo'lishi, umuman, yuqorida keltirilgan barcha xalqlarning paydo bo'lishi tarixiga oid ma'lumotlar Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarida ham mavjud: "O'g'uz va uning am mavachchalari o'rtasida nizo kuchayib (ular bir-birlari bilan), tig' va tili bilan so'zlashib yurgan vaqtlarida (qang'li qavmli) ularning mulkini, xirojini, taxt-u tojini talon-toroj qildi va had-hisobdan tashqari qimmatbaho toshlari, naqdinalari va turli mato va kiyimlari (qang'li) qo'liga tushdi. Bu (narsalar)ni o'sha tomondan olib ketish mushkul va qiyin ko'rindi. (Shu vaqtda bu jamoa nazar va fikrning nozikligi bilan aravalar yasadilar; qo'llaridagi yukning hammasini aravalarga ortdilar. Va shu maqbul ishlari tufayli "qang'li" laqabini olganlar, qang'li – aravaning nomi bo'lgan. Qang'larning barchalari o'sha nomning qatralari va o'sha daryoning tomchilaridir".[3.451]

Yuqoridagi parchalar shuni ko'rsatadiki, "O'g'uznoma" va tarixiy asarlarda berilgan etnologik miflarda u qadar katta farqlar ko'zga tashlanmaydi. Faqatgina syujetida ayrim tafovutlar mavjud. Shunga qaramay, qang' urug'ining kelib chiqishiga oid fikrlar asosida "qang'" so'zining yuk tashuvchi aravaga nisbatan qo'llanganligi hamda bu urug' vakillarining kuchli aql egalari bo'lganligi anglashiladi. O'g'uz shaxsi yoritilgan tarixiy asarlar yana bir jihati bilan bir-biridan farqlanadi. Bu O'g'uzxon tarixiga oid lavhalarining keng yoki tor bayon qilinganidadir. Rashididdin Hamadoniyning "Jome' ut-tavorix" asari O'g'uzxon tarixi batafsil yoritilgan manbalardan biridir. Rashididdin Hamadoniyniy turkiy qavmlar tarixini ilk bor ilmiy asosda yoritib bergan olimdir. Biz ta'kidlagan Mirzo

Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Abulg'oz Bahodirxonning "Shajarai turk" asarlarini yozishda ham mualliflar "Jome' ut-tavorix"dan foydalanganlar.

"Jome' ut-tavorix" fors tilida yozilgan bo'lib, olim o'z asari orqali mo'g'ullarning barcha qabilasi turkiy qavmlardan tarqalganligini asoslab berdi. Bu qabilalarning barchasi O'g'uzxonga, O'g'uzxonning shajarasi esa Nuh payg'ambarga borib taqalishini ko'rsatadi. "Jome' ut-tavorix"ning O'g'uz shaxsini yoritishdagi ahamiyatli jihati shundaki, asarda O'g'uzxon musulmon sifatida ko'rsatilgan bo'lsa ham, turkiy mifologiyaning ayrim izlari saqlanib qolgan. Bu jihat "Jome' ut-tavorix" bilan "O'g'uznoma" o'rtasidagi umumiyliklardan biridir. Asarda turkiy mifologiya aks etgan o'rinlarga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin. Ma'lumki, eski turk dini – shomoniylilikda payg'ambar va muqaddas kitoblar bo'lmaganligi sababli qomlar, ya'ni shomonlarning o'rni beqiyos bo'lgan. Turkiyalik olim Usmon Turon shomonlar haqida shunday yozadi: "Shomonlar istiqbolning yaxshi va yomon hodisalaridan ko'k turklarni voqif aylaydilar. Qomlarning tavsiyalarisiz qo'shin to'plab, urushga kirishilmas edi". "O'g'uznoma" dostonidagi Ulug' Turk, "Dada Qo'rquq kitobi"dagi Qo'rquq ota eski turkiylarning shomonlariga misol bo'la oladi. "Jome' ut-tavorix" asarida keltirilgan Irqli Xo'ja aslida "O'g'uznoma" dostonidagi Ulug' Turk obraziga mos keladi. U O'g'uz avlodlarining har biriga nom, laqab, tamg'a va belgilarni belgilab beradi. O'g'uzxondan tarqalgan 24 urug'ning har biriga ma'lum hayvon nomlari beriladi. Bu hayvonlar har bir qabilaning ungunidir va ularga zarar yetkazish taqiqlangan. "O'g'uznoma"da ham Ulug' Turk O'g'uzxon avlodlari o'rtasida hokimiyat taqsimotini oldindan bashorat qiladi.

"Jome' ut-tavorix" asarining O'g'uz shaxsini yoritish borasida yana bir muhim jihati mavjud. Ma'lumki, Xitoy solnomalari qadimgi turklar tarixi uchun eng qadimiy va ishonchli manbalardan biridir. Rashididdin Hamadoniy ushbu asarni yozish jarayonida xitoylik tarixchi Pulod Chjen Sinning ma'lumotlaridan ham foydalangan. Bu esa asarning ilmiylik darajasini yanada oshirgan.[4.56]

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, "O'g'uznoma" dostonidagi tarixiylik xususiyatlari O'g'uzxonning yurishlari, turkiy xalqlarga nom berishi, ularni birlashtirib markazlashgan davlat tuzishi bilan bog'liq voqealarda o'z aksini topgan. O'g'uz hoqonning boshqa yurt va elatlarga yurishlari orqali qadimgi turkiy xalqlarning markazlashgan davlat tuzishga bo'lgan intilishi haqida xulosa chiqarish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bichurin N.Ya. Xalqlar haqidagi ma'lumotlar to'plami .... – M.-L., 1950.
2. G'al Bahouddin. Turk mifologiyasi. – Anqara, 1993 yil.
3. Jabbor E. O'zbek xalq dostonlarida orzu motivi // O'zbek tili va adabiyoti, 1993, № 2.
4. Mumtoz o'zbek adabiyoti namunalari. 1 yil. – T.: "Muxlis", 2003 yil.
5. Putilov B. Motiv syujet tuzuvchi element sifatida // Xalq og'zaki ijodi bo'yicha tipologik tadqiqotlar. – M., 1975 yil.
6. Veselovskiy A.N. Tarixiy poetika. – L., 1940 yil.